QADIMGI TURKIY YODGORLIKLARDA RANG NOMLARINING QO'LLANISHI VA ULARNING HOZIRGI O'ZBEK TILIGA O'TISHI

Xoliqova Zahro Arol qizi

https://doi.org/10.5281/zenodo.23219456

Annotatsiya. Maqolada qadimgi turkiy yodgorliklar va Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari tilidagi rang nomlarining qo'llanishi hamda ularning hozirgi o'zbek tiliga o'tish jarayoni tahlil qilinadi. Rang atamalarining fonetik, semantik va leksik taraqqiyoti B. Berlin va P. Kay nazariyasi asosida yoritiladi. Asosiy rang nomlari (oq, qora, qizil, sariq, ko'k) ming yildan ortiq vaqt davomida o'z ildizini saqlagan, biroq ularning ma'no doirasi, qo'llanish sohasi va hosila shakllari sezilarli o'zgargani ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: rang konsepti, rang nomi, qadimgi turkiy til, Orxun-Enisey bitiglari, evolyutsiya, semantik taraqqiyot, o'zbek tili.

УПОТРЕБЛЕНИЕ НАЗВАНИЙ ЦВЕТОВ В ДРЕВНЕТЮРКСКИХ ПАМЯТНИКАХ И ИХ ПЕРЕХОД В СОВРЕМЕННЫЙ УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Холикова Зохра Арол кизи

Аннотация. В статье анализируются употребление названий цветов в древнетюркских памятниках и в «Диване лугат ат-тюрк» Махмуда Кашгари, а также их переход в современный узбекский язык. Фонетическое, семантическое и лексическое развитие цветообозначений рассматривается на основе теории Б. Берлина и П. Кея. Показано, что основные названия цветов (oq, qora, qizil, sariq, ko'k) сохранили корень на протяжении более тысячи лет, но их семантический объём, сфера употребления и производные формы заметно изменились.

Ключевые слова: концепт цвета, название цвета, древнетюркский язык, орхоно-енисейские надписи, эволюция, семантическое развитие, узбекский язык.

THE USE OF COLOR TERMS IN OLD TURKIC MONUMENTS AND THEIR TRANSITION INTO MODERN UZBEK

Xoliqova Zahro Arol qizi

Abstract. The article analyzes the use of color terms in Old Turkic monuments and in Mahmud Kashgari's "Diwan Lughat al-Turk" and traces their transition into modern Uzbek. The phonetic, semantic and lexical development of color terms is discussed within the framework of B. Berlin and P. Kay's theory. It is shown that the basic color terms (oq, qora, qizil, sariq, ko'k) have preserved their roots for more than a thousand years, while their semantic range, areas of use and derived forms have changed considerably.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Keywords: color concept, color term, Old Turkic, Orkhon-Yenisei inscriptions, evolution, semantic development, Uzbek language.

Kirish

Til xalqning tarixi, dunyoqarashi va madaniyatini o'zida saqlovchi vositadir. Rang nomlari esa tilning eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan hisoblanadi, chunki rang insonning atrof-borliqni idrok etishidagi dastlabki tushunchalardan biridir. Rang konsepti tilda faqat ranglarni nomlash bilan cheklanmaydi: u ko'chma ma'nolar, ramzlar, frazeologik birliklar va toponimlar orqali xalqning dunyoni anglash usulini ham aks ettiradi [Mirtojiyev, 2010; 112-118].

O'zbek tilidagi rang nomlarining aksariyati qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Shu sababli rang konsepti evolyutsiyasini o'rganishda qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga murojaat qilish tabiiy zaruratdir. Tadqiqotning maqsadi qadimgi turkiy yodgorliklar va XI asr manbalaridagi rang nomlarini hozirgi o'zbek tilidagi shakllari bilan solishtirib, ularning fonetik, semantik va uslubiy o'zgarishlarini aniqlashdan iborat. Bunda quyidagi vazifalar belgilandi: qadimgi turkiy rang atamalari tizimini aniqlash; ularning hozirgi o'zbek tilidagi muqobillarini ko'rsatish; ma'no kengayishi va torayishi hodisalarini tahlil qilish; yangi qatlamlar (o'zlashmalar) ta'sirini yoritish.

Nazariy asos

Rang nomlarining tarixiy taraqqiyoti masalasi jahon tilshunosligida B. Berlin va P. Kay tomonidan ilgari surilgan nazariya bilan bog'liq holda keng muhokama qilinadi. Ularning fikricha, tillarda asosiy rang nomlari tasodifiy emas, balki ma'lum tartibda paydo bo'ladi: avval "qora" va "oq" (to'q va yorug') tushunchalari, so'ngra qizil, keyin yashil yoki sariq, undan so'ng ko'k, keyinroq jigarrang va nihoyat binafsha, pushti, to'q sariq, kulrang kabi atamalar shakllanadi [Berlin, Kay, 1969; 1-45]. Bu nazariya turli tanqidlarga uchragan bo'lsa-da, rang atamalarining tarixiy qatlamlarini tartiblashda hamon muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.

O'zbek tilshunosligida rang bildiruvchi so'zlar leksik-semantik guruh sifatida o'rganiladi. Ular asosiy (oq, qora, qizil, sariq, ko'k, yashil) va hosila (sarg'ish, qizg'ish, ko'kimtir, oppoq, qip-qizil), shuningdek, narsa nomiga asoslangan (kulrang, jigarrang, pushti, binafsha) turlarga ajratiladi [Mirtojiyev, 2010; 112-118]. Shuni ta'kidlash lozimki, asosiy rang nomlari tarixan eng barqaror qatlamni tashkil etadi, hosila va narsa nomiga asoslangan atamalar esa nisbatan keyin shakllangan.

Material va metodlar

Tadqiqot materiali sifatida VIII asrga oid Orxun-Enisey bitiglari tili, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari [Mahmud Koshg'ariy, 1960; 1-3-jildlar] hamda qadimgi turkiy tilning lug'atlari [Древнетюркский словарь, 1969; 41-45] va etimologik manbalar [Clauson, 1972; 80-85] xizmat qildi. Tahlilda tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, etimologik va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Qadimgi turkiy shakllar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi muqobillari bilan solishtirilib, fonetik o'zgarishlar va ma'no taraqqiyoti aniqlandi.

Tahlil va natijalar

Qadimgi turkiy rang nomlari tizimi. Qadimgi turkiy yodgorliklarda asosiy rang nomlari sifatida aq, qara, qızıl, sarığ, kök, yašıl kabi so'zlar uchraydi. Ularning ko'pchiligi hozirgi o'zbek tilida fonetik jihatdan oz o'zgarish bilan saqlangan (1-jadval) [Abdurahmonov, Rustamov, 1982; 25-40].

1-jadval. Qadimgi turkiy rang nomlari va ularning hozirgi o'zbek tilidagi shakli

Qadimgi turkiy shakl	Asosiy ma'nosi	Hozirgi o'zbekcha	Fonetik o'zgarish

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Qadimgi turkiy shakl	Asosiy ma'nosi	Hozirgi o'zbekcha	Fonetik o'zgarish
aq	oq, yorug'	oq	a > o (labiallashuv)
qara	qora, to'q	qora	a > o
qızıl	qizil	qizil	ı > i
sarıġ	sariq	sariq	ı > i, ġ > q
kök	osmon rangi, ko'k	ko'k	ö > o'
yašıl	yashil	yashil	ı > i, š > sh
ala	xilma-xil, dog'li	ala	o'zgarmagan
boz	kulrang, och tusli	bo'z	o > o'

Jadvaldan ko'rinadiki, rang nomlari o'zagi ming yildan ortiq vaqt davomida saqlanib qolgan va asosiy o'zgarishlar o'zbek tili fonetik tizimiga xos jarayonlar (unlilarning labiallashuvi, old qator unlilarining o'zgarishi, qadimgi tovushlarning almashinuvi) bilan bog'liq. Bu holat rang atamalarining tilning eng turg'un leksik qatlamiga mansubligini tasdiqlaydi.

Semantik taraqqiyot. Fonetik jihatdan barqaror qolgan so'zlarning ma'nosi esa o'zgarishlarga uchragan. Masalan, qadimgi turkiy tilda "kök" so'zi osmon rangini ham, ba'zan yashil tusni ham bildirgan, "Kök Türk", "kök täŋri" kabi birikmalarda esa osmon bilan bog'liq muqaddas ma'no ifodalangan [Сравнительно-историческая грамматика, 2001; 310-318]. Hozirgi o'zbek tilida "yashil" alohida atama sifatida mustahkamlangan bo'lsa-da, "ko'kat", "ko'k piyoz", "ko'k choy" kabi so'z va birikmalarda "ko'k" so'zining qadimgi "yashil" ma'nosi saqlanib qolgan. Bu hodisa ikki rang o'rtasidagi chegaraning keyinroq ajralganini ko'rsatadi va Berlin hamda Kay nazariyasidagi bosqichlarga mos keladi.

"Yashil" so'zi ayrim etimologik talqinlarga ko'ra "yaš-" (yashnamoq, ko'karmoq) fe'li bilan bog'liq bo'lib, uning dastlabki ma'nosi o'simlikning yashnashi bilan aloqador bo'lgan [Clauson, 1972; 970-975]. "Qora" so'zi ham rangdan tashqari, qadimgi turkiy tilda "oddiy, keng" ma'nosida qo'llangan: "qara budun" birikmasi oddiy xalqni anglatgan va bu ma'no hozirgi o'zbek tilidagi "qora xalq" birikmasida saqlangan [Abdurahmonov, Rustamov, 1982; 25-40]. "Bo'z" so'zi esa rang nomidan kengayib, "bo'z yer" (o'zlashtirilmagan yer), "bo'z bola" (yosh, uylanmagan yigit) hamda "bo'z" (dag'al paxta mato) kabi ma'nolar kasb etgan. Bu kabi misollar rang nomlarining ko'p ma'noli birliklarga aylanish yo'lini namoyon qiladi.

Rang nomlarining uslubiy qo'llanishi. Orxun-Enisey bitiglarida rang nomlari ko'pincha epik va ritorik vazifa bajaradi. "Kök täŋri" (ko'k osmon), "qara budun" (oddiy xalq) va "qızıl qan" kabi birikmalar tasvirga ifodalilik berish bilan birga, davlat, xalq va jang haqidagi tushunchalarni ham bildiradi. Mahmud Koshg'ariyning asarida esa rang nomlari kundalik hayot va xo'jalik bilan, xususan, ot va boshqa chorva hayvonlarining tuslarini farqlash bilan bog'liq holda keng izohlangan. Bu holat qadimgi turkiy tilda rang nomlari ham ramziy, ham amaliy vazifa bajarganini ko'rsatadi [Mahmud Koshg'ariy, 1960; 1-3-jildlar].

Hozirgi o'zbek tilida bu qadimiy qatlamning davomini frazeologik birliklarda kuzatish mumkin. "Oq yo'l", "oq ko'ngil", "qora niyat", "qora kun", "sariq chaqaga arzimaydi" kabi birliklar rang nomlarining ko'chma ma'nolari uzoq tarixiy davr mobaynida mustahkamlanganini ko'rsatadi

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

[Rahmatullayev, 1978; 40-60]. Bu birliklarning ko'pchiligida rangning haqiqiy belgisi susaygan, uning o'rniga madaniy-baholovchi ma'no (yaxshi-yomon, pok-nopok, qimmatli-qadrsiz) ustuvor bo'lib qolgan. Demak, rang konsepti evolyutsiyasi faqat so'zning tovush shakli va ma'nosidagi o'zgarish emas, balki rangning ramziy-baholovchi vazifasining kengayishi hamdir.

Etimologik aloqalar va so'z yasalishi. Rang nomlari ko'pincha fe'l o'zaklari bilan etimologik bog'lanadi. Masalan, "qizil" so'zi "qız-" (qizimoq, qizishmoq) o'zagi bilan aloqador bo'lib, hozirgi tilda "qizimoq", "qizg'in" so'zlarida bu bog'lanish seziladi. "Yashil" so'zining "yashnamoq" bilan, "ko'k" so'zining "ko'karmoq", "ko'kalamzor" so'zlari bilan aloqasi ham shu jihatdan e'tiborga loyiq [Clauson, 1972; 970-975]. Rang nomlaridan fe'l yasash hozirgi tilda juda unumli: oqarmoq, qoraʏмoq, qizarmoq, sarg'aymoq, ko'karmoq kabi fe'llar rang o'zgarishi jarayonini bildiradi va ko'pincha ko'chma ma'noda ham qo'llanadi (yuzi oqarmoq, ko'ngli qoraʏмoq).

Rang nomlaridan ot, sifat va fe'l yasash qatorining boyligi rang konseptining o'zbek tilida faol so'z yasalish markazi ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga qadimgi turkiy tilda ham rang nomlari asosida hosilalar mavjud bo'lgani, biroq ularning hozirgi tilga nisbatan kamroq tizimli bo'lgani qayd etiladi [Abdurahmonov, Rustamov, 1982; 25-40]. Bu farq tilning ichki taraqqiyoti natijasida rang konseptining so'z yasalish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi.

Hosila shakllar va yangi qatlamlar. Qadimgi turkiy tilda rang nomlari asosan o'zak holida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi o'zbek tilida ularning ma'no darajasini bildiruvchi boy tizim shakllangan. Bunga -ish, -imtir qo'shimchalari bilan hosil bo'lgan (sarg'ish, ko'kimtir) hamda takror va birinchi bo'g'inni kuchaytirish orqali yasalgan (oppoq, qop-qora, qip-qizil, sap-sariq, ko'm-ko'k) shakllar kiradi [Mirtojiyev, 2010; 118-124]. Bunday intensivlik shakllari turkiy tillarga xos qadimiy usul bo'lib, o'zbek tilida ayniqsa unumli.

Shuningdek, tarixiy aloqalar natijasida o'zbek tiliga fors-tojik va arab tillaridan rang atamalari kirib kelgan: zangori, binafsha, pushti, jigarrang, kulrang. Ular asosan o'zbek tilida avval ifodasiz qolgan yoki aniq farqlanmagan oraliq ranglarni nomlash ehtiyojidan kelib chiqib mustahkamlangan. Bu jarayon Berlin va Kay nazariyasidagi keyingi bosqich atamalarining, ya'ni binafsha, pushti, jigarrang kabi birliklarning keyin shakllanishi haqidagi qarashni qo'llab-quvvatlaydi.

Rang nomlarining toponimlarda saqlanishi. Rang nomlari qadimgi tuslarini joy nomlarida ham saqlagan: Qizilqum, Qorako'l, Oqtosh, Sariosiyo, Ko'ksaroy kabi nomlar shular jumlasidandir [Qorayev, 2006; 44-60]. Bu yerda rang nomlari ko'pincha tabiiy belgi bilan birga yo'nalish, katta-kichiklik yoki muqaddaslik kabi qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalaydi. Toponimlar rang konsepti evolyutsiyasini o'rganishda til tarixidan tashqari muhim manba vazifasini o'taydi.

Natijalarning muhokamasi. Tahlil natijalarini Berlin va Kay nazariyasi bilan solishtirsak, qadimgi turkiy tilda oq, qora, qizil, ko'k va sariq kabi atamalarning mustahkam ildizga ega ekani bu nazariyadagi dastlabki bosqichlarning turkiy materialda ham tasdiqlanishidan dalolat beradi. Shu bilan birga ko'k va yashil o'rtasidagi chegaraning keyinroq ajralishi, o'zlashma atamalar hisobiga oraliq ranglar nomining boyishi nazariyadagi keyingi bosqichlarga mos keladi. Biroq turkiy materialda rang nomlari ma'nosi faqat idrok bilan emas, balki madaniy-ijtimoiy omillar bilan ham belgilangani sababli, evolyutsiyani yagona universal sxema bilan to'liq izohlab bo'lmaydi. Shu bois rang konsepti evolyutsiyasini o'rganishda fonetik, semantik va madaniy jihatlarni birgalikda hisobga olish zarur.

Xulosa

Qadimgi turkiy yodgorliklar tilidagi rang nomlarini hozirgi o'zbek tili bilan solishtirish quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, asosiy rang nomlari (oq, qora, qizil, sariq, ko'k, yashil) o'zak jihatdan barqaror bo'lib, ularning o'zgarishi asosan fonetik jarayonlar bilan bog'liq. Ikkinchidan,

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

semantik taraqqiyot ma'noning kengayishi (qora xalq, bo'z yer), ayrim ma'nolarning ajralishi (ko'k va yashil) hamda ko'chma ma'nolarning paydo bo'lishi shaklida kechgan. Uchinchidan, hozirgi o'zbek tilida rang darajasini ifodalovchi hosila shakllar va o'zlashma atamalar hisobiga rang nomlari tizimi kengaygan. To'rtinchidan, rang nomlari toponimlarda qadimgi qatlamni saqlab kelmoqda. Olingan natijalar o'zbek tili tarixi, leksikologiya va lingvokulturologiya bo'yicha keyingi tadqiqotlarda, shuningdek, o'quv qo'llanmalari va lug'atlar yaratishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – 25-40-b.
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-3-jildlar. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
3. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 112-124-b.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 40-60-b.
5. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – 44-60-b.
6. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 41-45.
7. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков: Лексика. – Москва: Наука, 2001. – С. 310-318.
8. Berlin B., Kay P. Basic Color Terms: Their Universality and Evolution. – Berkeley: University of California Press, 1969. – P. 1-45.
9. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972. – P. 80-85, 970-975.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.